

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**HASANOV JAHONGIR HIKMATILLOYEVICH**

**MAHALLIY XOMASHYOLARDAN MUHIM YOG‘ KISLOTALARIGA  
BOY MOYLAR OLISHNING MAQBUL TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB  
CHIQISH**

**02.00.17-Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta  
ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора технических наук (DSc)**

**Contents of the dissertation abstract of Doctor of Technical Science (DSc)**

**Hasanov Jahongir Hikmatilloevich**

Mahalliy xomashyolardan muhim yog' kislotlariga boy moylar olishning maqbul texnologiyalarini ishlab chiqish.....3

**Хасанов Жахонгир Хикматиллоевич**

Разработка оптимальной технологии получения масел, богатых эссенциальными жирными кислотами, из местного сырья.....25

**Khasanov Jahongir Hikmatilloevich**

Development of optimal technologies for the recovery of oil's from local sources with rich sources of essential fatty acids .....47

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....51

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**HASANOV JAHONGIR HIKMATILLOYEVICH**

**MAHALLIY XOMASHYOLARDAN MUHIM YOG‘ KISLOTALARIGA  
BOY MOYLAR OLIISHNING MAQBUL TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB  
CHIQISH**

**02.00.17-Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta  
ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

Texnika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/T297 raqam bilan ro'yxatga olingan

Doktorlik dissertatsiyasi O'zR Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb-sahifasi (ik-kimyo.nuu.uz) hamda «Ziynet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Salixov Shavkat Ismoilovich biologiya fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	Isabaev Ismoil Babadjanovich texnika fanlari doktori, professor Axmedov Azimjon Normo'minovich texnika fanlari doktori, professor Abduraximov Ahror Anvarovich texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Fanlari akademiyasi O'simlik moddalar kimyosi instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.04.01 raqamli Ilmiy Kengashning «19» 05 2025-yil soat «10»<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Shayhontohur tumani, A. Navoi ko'chasi, 32. Tel.: (+99871) 244-79-21; faks: (+99871) 244-79-17, e-mail:tkti\_info@edu.uz). Toshkent kimyo-texnologiya instituti Ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. <sup>796</sup> -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Shayhontohur tumani, A. Navoi ko'chasi, 32. Tel.: (+99871) 244-79-21; faks: (+99871) 244-79-17.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «13» 05 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «13» 04 kuni 97 raqamli reyestr boyonnomasi).



S.M. Turohjonov  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash Raisi, t.f.d., akademik.

X.F. Qodirov  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash kotibi, t.f.d., professor.

Q.P. Serkaev  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
Kengash qoshidagi ilmiy seminarga  
ra'islik qiluvchi t.f.d. professor

## KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda aholining kundan-kunga ortib borishi, turmush darajasining yaxshilanishi va tabiiy, ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishi boshqa sohalar qatori oziq-ovqat, farmatsevtika va kosmetika sanoatlari uchun ham yangi texnologik jarayon va tizimlarda mahsulotlar ishlab chiqarish, mavjud texnologiyalarni modernizatsiya qilish masalalarini dolzarb vazifa sifatida qarash zaruriyatini qo'ymoqda. Bundan tashqari, ilm fanimizni dunyo olimlari olib borayotgan ilg'or texnologiyalar yaratishga qaratilgan tadqiqotlar va urinishlar bilan yanada boyitish orqali ishlab chiqarishdan ilm fanni ilgarilashiga erishish muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish kelajakda arzon va sifatli mahalliy mahsulotlarni yetarli miqdorda ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Maqbul texnologik ko'rsatkichlarni tadqiq qilish orqali texnologik uzviyliklarni ishlab chiqish va takomillashtirish muhimdir.

Dunyoda olimlari tomonidan yuqori sifatli moylar ishlab chiqarish va shu borada ilmiy izlanishlar olib borishga katta e'tibor qaratilmoqda. Moylar ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, shu bilan bir qatorda, sifat, miqdor va iqtisodiy ko'rsatkichlarni modellashtirish va bashoratlash dolzarb masala hisoblanadi.

Respublikamizda moy ishlab chiqarish asosan qattiq modda suyuqlik fazasida ekstraksiyalash jarayonlari orqali olib boriladi. Qurilmalarning turlicha konstruktsiyalarida hamda ekstraksiyalanuvchi mahsulotlarning har xil turlarida jarayonni jadallashtirish, maqbul texnologik ko'rsatkichlarni taklif qilish ustida ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan va muayyan natijalarga erishilgan. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Sanoatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, mahalliy xomashyo manbalarini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni o'zlashtirish"<sup>1</sup> vazifalari belgilab berilgan. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida, ko'zlangan natijalarga erishish uchun o'simlik xomashyosidan moylar, ekstraktlar va biologik faol moddalarni ajratib olishda yakuniy mahsulotning yuqori sifatini ta'minlashga qaratilgan ilg'or mahalliy texnika va texnologiyalarni keng ko'lamda yaratish va qo'llash zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2019-yil 29-iyuldagi PQ-4406-son «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, jumladan meva va sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash, ularning iste'mol me'yorlarini talab darajasiga yetkazish hamda turli yarimfabrikatlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2019 yil 1 maydagi PQ-4302-son «Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari va qarorlari hamda mazkur

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi 2022-yilning 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi".

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.**<sup>2</sup> Muhim yog' kislotalariga boy o'simlik moylari, zig'ir moyi, ularni olish texnologiyalari, matematik modellash va optimallashtirish usullari, moyli urug'larning mos turlarini tanlashga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan Qishloq xo'jaligi fanlari va veterinariya universiteti (Ruminiya), Garvard universiteti (AQSH), Britaniya ovqatlanish jamg'armasi (Britaniya), Porto universiteti (Portugaliya), G'arbiy Avstraliya universiteti (Avstraliya), Milliy sut mahsulotlari tadqiqot instituti (Hindiston), Cornell Universiteti (AQSH), Haryana (India), Kumamoto Universiteti (Yaponiya), Umumrossiya baliqchilik xo'jaligi va okeanografiya ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya), Buxoro muhandislik texnologiya instituti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Bioorganik kimyo hamda O'simlik moddalari kimyosi ilmiy tadqiqot institutlarida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Dunyoda muhim yog' kislotalariga boy moylar, na'matak va zig'ir moylari, zig'ir moyini olish texnologiyalari, ularning yog' kislotalariga oid olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: zig'ir va na'matak urug'lari moyining fizik kimyoviy xususiyatlari o'rganilgan, ushbu urug'lar moyining sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari taxlil qilingan (Organik kimyo Instituti, Fitokimyo markazi, (Bolgariya), Rim Sapienza Universiteti, (Italiya), Kwame Nkumah Ilm va texnologiya Universiteti, (Gana), Otago Universiteti, (Yangi Zelandiya), Ottava Universiteti, (Kanada), Munhen Texnika Universiteti (Germaniya), Tabiiy va amaliy fanlar Universiteti, (Polsha), Sankt Peterburg davlat kimyo-farmatsevtika akademiyasi, Umumrossiya xushbo'y va dorivor o'simliklar instituti, (Rossiya), na'matak va zig'ir urug'idan moy olish jarayonlarini modellash va optimallashtirishning muammolari, eruvchanlik, presslash texnologiyasi va yuqori kritik ekstraksiyalash texnologiyalari Qishloq xo'jaligi fanlari va veterinariya universiteti, (Ruminiya), Xitoy qishloq xo'jaligi universiteti, (Xitoy), Saskatchewan Universiteti, (Kanada), Pamukkale Universiteti, (Turkiya), Alberta Universiteti, (Kanada), Kumamoto Universitetlarida (Yaponiya) yaratilgan, muhim yog' kislotalarining maqbul nisbatlari aniqlangan, zig'ir urug'i biofaol moddalari asosida bioqo'shimchalar tayyorlangan, ularni texnik iqtisodiy bashoratlashlari University of Campinas, (Braziliya), Buxoro muhandislik texnologiya instituti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Bioorganik kimyo hamda O'simlik moddalari kimyosi ilmiy tadqiqot institutlarida (O'zbekiston) amalga oshirilgan.

---

<sup>2</sup>Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: [www.ipb.ac.id](http://www.ipb.ac.id), [www.iagre.org](http://www.iagre.org), [www.itu.edu.tr](http://www.itu.edu.tr), [www.cornell.edu](http://www.cornell.edu), [www.psu.edu](http://www.psu.edu), [www.nrel.gov](http://www.nrel.gov), [www.unical.it](http://www.unical.it), [www.csic.es](http://www.csic.es), [www.unicamp.br](http://www.unicamp.br), [www.tanta.edu.eg](http://www.tanta.edu.eg), [www.tugraz.at](http://www.tugraz.at), [www.uwaterloo.ca](http://www.uwaterloo.ca), [www.renewability.com](http://www.renewability.com), [www.mgupp.ru](http://www.mgupp.ru), [www.kniihpsp.ru](http://www.kniihpsp.ru), [www.tdtu.uz](http://www.tdtu.uz), [www.tkti.uz](http://www.tkti.uz), [www.urmon.uz](http://www.urmon.uz) va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

Dunyoda na'matak va zig'ir urug'laridan moylar olish va moylarining fizik-kimyoviy xususiyatlari bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: omega-6: omega-3 yog' kislotalarining optimal nisbatlarini o'rganish, shuningdek, yuqori sifatli va arzon moylarni olish usullarini o'rganish, zig'ir urug'ini ekstraktsiya qilishda "yashil" texnologiyalarni qo'llash bo'yicha innovatsion yo'nalishlarga e'tibor qaratish, zig'ir urug'laridan moylarni ajratib olishning iqtisodiy jihatdan samarali usullarini tadqiq qilish, o'simlik xom ashyosidan qimmatli komponentlarni ajratib olishni jadallashtirish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Muhim yog' kislotalariga boy moylar olish texnologik jarayonlari va muhim yog' kislotalari ustida dunyo olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, muhim yog' kislotalarining moy sifatiga ta'siri yuqoriligiga bogliq ravishda, yuqori bosimli jarayonlarda ekstraktsiyalash yoki an'anaviy texnologiyalar yordamida moylar olish ustida mashhur olimlar va mutaxassislar tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan, bular: Jian-Zhong Yin, R. Montero-Vazquez, E. Mart'inez de la Ossa, John R. Dean J., Eggers, V.Louli., Irena Zizovic., Iraj Goodarznia, Be'la Sima'ndi, Yadollah Yamini, Koshevoy Ye.P., Siyunxov X.R., Derevich I.V., Chexov O.S., Shindyapkin A.A., Glushchenkova A.I., Sagdullaev A.A., Isabayev I.B., Serkaev Q.P., Abduraximov S.A., Gusakova S.D. va boshqa olimlar yuqori sifatli, muhim yog' kislotalariga boy o'simlik moylari olishning innovatsion texnologik jarayonlarini ishlab chiqish, shu jumladan, zaruriy moddalarni yuqorikritik ekstraktsiyalashning iqtisodiy ko'rsatkichlari va an'anaviy usullarida har xil turdagi organik erituvchilar orqali moy olish bilan o'zaro taqqoslash, loyihalashtirilayotgan qurilmalarni sanoat miqyosigacha kattalashtirishga qaratilgan talab yuqori bo'lgan muammolar bilan muvaffaqiyatli shug'ullanmoqdalar.

Yuqorikritik ekstraktsiya (YuKE), presslash va ana'naviy usullarda mahalliy urug'lardan moylar olingan. Olingan moylarning fizik kimyoviy xususiyatlari, sifat ko'rsatkichlari aniqlangan va baholangan. YuKE jarayonini matematik modellashtirish va jadallashtirish ustida tadqiqotlar amalga oshirilgan.

O'zbekistonda ham o'simlik moylari olishning texnologik tizimlari va moylarining sifat ko'rsatkichlari sohasida tadqiqotlar olib borilmoqda, jarayon texnologik ko'rsatkichlarining ekstrakt sifatiga ta'siri, YuKE jarayonining iqtisodiy ko'rsatkichlarini an'anaviy usullar bilan taqqoslash, jarayonni boshqa turdagi organik erituvchilardan foydalanish sharoitida o'rganish, YuKE jarayonini keng ko'lamda o'tkazish va uni sanoatga joriy etish masalalari o'rganilmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi O'zR FA Bioorganik kimyo instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ITD-7.12 "Geranium sanguineum o'simligidan olingan SARS-COV-2 virusiga qarshi biologik faol moddalarning tuzilishi va molekulyar ta'sir mexanizmini o'rganish asosida virusga qarshi dori vositasini ishlab chiqarish" (2023-2026 y.y.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** zig'ir va na'matak urug'laridan to'yinmagan yog' kislotalariga boy moylar olishning maqbul texnologiyalarini ishlab chiqishni ilmiy

amaliy asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mahalliy xom ashyolar o'simlik moyining talab etilgan yog' kislotalar tarkibiga mos keladigan urug' turlarini tanlash;

na'matak (*Rosa canina*) va zig'ir (*Linum usitatissimum*) urug'lari hamda moylarining xususiy holatlari tahlilini amalga oshirish;

na'matak va zig'ir urug'laridan ekstraksiyalash jarayonlari orqali moy olishning tajribaviy va analitik matematik modellari o'zaro mosligini nazariy asoslash;

o'simlik xom ashyosini ekstraksiyalash usullarini qiyosiy tahlil qilish, na'matak va zig'ir urug'laridan moy olishning ma'qul texnologik sharoitlarini ilmiy-amaliy asoslash;

na'matak urug'idan ekstraksiyalash orqali moy olishning maqbul texnologiyalarini asoslash;

zig'ir urug'idan moy olishning maqbul texnologiyalarini yaratish;

muhim yog' kislotalariga boy moylar uchun standartlar ishlab chiqish va tasdiqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida tarkibida o'rta va yuqori omega-3, omega-6 yog' kislotalari saqlovchi na'matak, zig'ir urug'lari moyi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** na'matak va zig'ir urug'lari moyining miqdori, sifati va narxini maqbullashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada zamonaviy kimyoviy, fizik-kimyoviy, spektral usullar, Box-Behnken va  $2^3$  tajriba rejalashtirish usullaridan foydalanilgan. Tajriba natijalari regression tahlil, maqbullashtirish va modellashtirish usullarini qo'llash orqali tahlil qilingan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

na'matak urug'ining  $0,27 \text{ mm} < d_{2,3} < 1,4 \text{ mm}$  zarracha o'lchamlarida "kanallanish" va "segregatsiya" xodisasi isbotlanib, ilk bor yuqori kritik ekstraksiyalash tizimida 94,7 % moy olingan;

YuKE texnologiyasida na'matak urug'idan moy olishning maqbul ko'rsatkichlari ilmiy asoslangan;

na'matak urug'idan YuKE orqali moy olishda diffuziya koeffitsientini aniqlash usuli asoslangan;

ilk bor YuKE texnologiyasi orqali olingan na'matak urugi moyining texnik iqtisodiy bashoratlari asoslangan;

presslashda urug' namligining zig'ir moyi sifati va miqdoriga ta'siri nazariy asoslangan;

YuKE orqali zig'ir urug'idan moy olishda adsorbsion kuchlar gradiyenti kamayishi isbotlangan;

zig'ir urug'idan ikki bosqichli harorat ta'sirisiz presslash va YuKE usullarida olingan moylarning omega-6:omega-3 yog' kislotalari nisbati maqbul qiymatlardan iboratligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

zig'ir va na'matak urug'laridan moy olishning asosiy texnologik jarayonlarini



modellashtirish va optimallashtirish masalalari yechilgan.

na'matak va zig'ir urug'laridan moy olish texnologik ketma-ketligining tajribaviy va nazariy natijalari asosida texnik-iqtisodiy simulyatsiyalash hamda imitatsion modellashtirish amalga oshirilgan;

na'matak va zig'ir urug'laridan presslash, an'anaviy ekstraksiyalash hamda YuKE usullarida moylar olishning apparatura sxemalari ishlab chiqilgan;

na'matak va zig'ir urug'lari uchun tashkilot standarti ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining yuqori impakt faktorli ilmiy jurnallarda chop etilishi, tajriba natijalari va matematik modellashtirish usullari orasidagi moslik, normativ texnologik hujjatlarning tasdiqlanganligi va Matlab, Matematika, Autocad, Solid works, Super Designer, Stat zamonaviy dasturlaridan foydalanilishi bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati urug' turlarining xususiy holatlaridan kelib chiqqan ilmiy texnologik yechimlar taklif etiladi. Na'matak urug'ining morfologik tuzilishi asosida zarrachalar o'lchami kichraytirilgan, natijada molekulyar diffuziya jadallashgan.

Presslashda urug' namligining boshqarilishi va val aylanishlar sonini oshirish issiqlikning moy massasiga o'tishini kamaytiradi. YuKE orqali zig'ir urug'idan moy olishda zarracha o'lchamlarining kichrayishi va yuqori bosim modda almashinish tezligi ortishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalarining ahamiyati shundan iboratki, mahalliy na'matak moyini fizik kimyoviy xususiyatlarining o'ziga xosligidan kelib chiqib surtmalar va kosmetik moylar sifatida qo'llash mumkin. Zig'ir urug'i tarkibida essensial yog' kislotalari nisbatining maqbulligi hisobiga, uni oziq-ovqat maqsadlarida tavsiya etish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Zig'ir va na'matak urug'laridan to'yinmagan yog' kislotalariga boy moylar olish texnologiyalarini maqbullashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Zig'ir urug'i moyi va CO<sub>2</sub>-ekstrakti ishlab chiqarishga texnik shart «Uzstandart» agentligi tomonidan tasdiqlangan (Ts 03535693-45:2023). Natijada zig'ir moyi substansiyalarini mahalliyashtirish imkonini bergan;

Na'matak urug'i moyi va CO<sub>2</sub>-ekstrakti ishlab chiqarishga texnik shart «Uzstandart» agentligi tomonidan tasdiqlangan (Ts 03535693-44:2023). Natijada na'matak moyi substansiyalarini mahalliyashtirish imkonini bergan;

Harorat ta'sirisiz presslash orqali moy olish texnologiyasi «Baqqol don Savdo» MChJning «2023-2025 yillarda joriy etishga qabul qilingan ishlanmalar» ro'yxatiga kiritilgan («O'zyog'moysanoat» korxonalari uyushmasining 2023 yil 5-iyulidagi KS/3-332 son ma'lumotnomasi). Natijada zig'ir urug'idan birinchi bosqichda 40,99 %, ikkinchi bosqichda 62,2 % moy olish imkonini bergan.

Harorat ta'sirisiz presslash orqali moy olish texnologiyasi «Baqqol don Savdo» MchJning «2023-2025 yillarda joriy etishga qabul qilingan ishlanmalar » ro'yxatiga kiritilgan («O'zyog'moysanoat» korxonalari uyushmasining 2023 yil 5-iyulidagi KS/3-332 son ma'lumotnomasi). Natijada zig'ir urug'idan birinchi bosqichda kislota soni 1,79 mg KOH/g moy, perekis soni 2,34 mekv/kg moy va

erkin yog' kislotalari 0,9 %, ikkinchi bosqich orqali mos ravishda kislota soni 2,11 mg KOH/g moy, perekis soni 1,89 mekv/kg moy va 1,1 % erkin yog' kislotalariga ega moy olish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ishlar, 13 ta maqola, shundan 4 tasi O'zbekiston Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, 6 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 169 betdan iborat bo'lib, 39 ta rasm va 44 ta jadvalni o'z ichiga oladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotlarning dolzarbligi, ilmiy hamda nazariy asoslari, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, dissertatsiya ishining Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirib o'tilgan. Izlanishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ilmiy ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Na'matak va zig'ir urug'laridan to'yinmagan yog' kislotalariga boy moylar olishda zamonaviy usullarning nazariy va amaliy holatlari**» deb nomlangan **birinchi bobida** yog' kislotalari, muhim yog' kislotalarining ahamiyati va asosiy manbalarining tahlili keltirilgan. Na'matak va zig'ir urug'i moylari, moylarning yog' kislotalari miqdori, to'yinmagan yog' kislotalariga boy moylar olish texnologiyalarining o'ziga xosligi ochiqqlangan. An'anaviy va "yashil" texnologiyalar yordamida moy olishning nazariy va amaliy holati tahlili, na'matak va zig'ir urug'laridan erituvchi turlarida, presslashning turli usullarida hamda YuKE texnologiyalarida moylar olishning joriy holati tahlili keltirilgan bo'lib, ushbu tahlillar asosida tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning «**Obyektlar va tadqiqot usullari**» deb nomlangan **ikkinchi bobida** asosan oziq-ovqat, farmatsevtika va kosmetika sohalari uchun nozik moylar olishda maqbul texnologiyalar ishlab chiqishga qaratilgan amallar ketma-ketligi keltirilgan. Tajriba va nazariy tadqiqotlarni amalga oshirishda tizimli harakatlar majmuasi tanlangan. Urug' turlarini tanlash, urug'larni ekstraksiyalash, moylarning yog' kislotalari tarkibini aniqlash, maqbul tarkibli yog' kislotalariga ega moyli urug'larni tanlash, an'anaviy hamda "yashil" texnologiyalar yordamida moy olishning texnologik ko'rsatkichlari maqbullashtirilgan. Olib borilgan tahlillar va o'rganilayotgan obektning maqbul texnologik ko'rsatkichlari asosida ratsional apparatura sxemalari ishlab chiqilgan.

Moyning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarini baholashda kislota soni, perekis soni, elementlar tahlili va yog' kislotalari metil efirlarini aniqlash usullaridan va ISP-MS (Nexion 2000) induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometri hamda Agilent Technology GS 7890V/MS 7000D analitik qurilmalaridan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning «An'anaviy va yuqori kritik ekstraksiyalash usullari orqali na'matak urug'i (*Rosa canina*) dan moy olishda texnologik omillar ta'sirini o'rganish va jarayonni maqbullashtirish» deb nomlangan uchinchi bobida mahalliy o'simlik urug'lari moyi yog' kislotalarining miqdor tahlili orqali tadqiqot obyekti tanlangan, yog' kislotalarining tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

**Mahalliy moy namunalarining yog' kislotalari miqdorlari**

Yog' kislotalari	Moy namunalari					
(%)	IM	GKM	NUM	YoM	ZM	SM
Miristin	0,19±0,02	0,33±0,01	0,05			
Palmitolein			0,14±0,01	6,72±0,89		
Pentadekan			0,03			
Palmetin	5,24±1,06	22,8±1,83	4,95±0,79		6,95±1,03	9,4±0,97
Margarin						
Linol	16,1±1,29	24,49±1,38	49,7±2,89	58,67±3,3	15,2±1,23	55,24±4,12
Linolen	10,02±0,9	1,85±0,32	28,14±0,89	6,03±1,1	52,58±3,36	7,48±0,78
Olein	65,15±4,49	46,94±2,79	13,44±0,99	25,12±2,0	19,98±1,1	25,33±1,7
Stearin	1,51±0,36	2,48±0,29	1,54±0,12	3,46±0,78	5,2±1,01	2,55±0,29
Bexen	0,42±0,03		0,11±0,01		0,07	
Araxidin	0,48±0,01	0,75±0,05	0,55±0,04		0,02	
Eruk	0,16±0,01					
Lignoserin		0,58±0,03				
TYoK*	7,84	26,72	7,28	3,46	12,24	11,95
MTYoK**	65,31	46,94	13,58	31,84	19,98	25,33
PTYoK***	26,85	26,34	77,84	64,7	67,78	62,72
omega6:omega3	1,6	13,23	1,76	9,72	0,28	7,38
TYoK:MTYoK:PTYoK	1:8,33:3,3	1,01:1,78:1	1:1,86:10,6	1:9,2:18,6	1:1,63:5,5	1:2,11:5,2

Izohlar: keltirilgan ko'rsatkichlar ikki marta takrorlashlarning o'rtachasi va og'ishlaridir. IM-indov moyi, GKM-guruch kepagi moyi, NUM-na'matak urug'i moyi, YoM-yong'oq moyi, ZM-zig'ir moyi, SM-soya moyi. TYoK\*-to'yingan yog' kislotalari, MTYoK\*\*-monoto'yinmagan yog' kislotalari, PTYoK\*\*\*-polito'yinmagan yog' kislotalari.

1-jadvalda indov moyining yog' kislotalari tarkibi (olein yog' kislotalari 65,15±4,49 %, omega-6:omega-3 yog' kislotalarining nisbati 1,6 dan iborat) keltirilgan. Guruch kepagi moyi tarkibida olein yog' kislotalari 46,94±2,79 %, omega-6:omega-3 yog' kislotalari nisbati 13,23 va TYoK:MTYoK:PTYoK nisbati 1,01:1,78:1 ni tashkil qildi. Na'matak urug'i moyida linol yog' kislotalari eng ko'p 49,7±2,89 % bo'lib, omega-6:omega-3 yog' kislotalari nisbati 1,76 va PTYoK:TYoK nisbatlari yuqori qiymatni (10,69) tashkil qilgan. Bundan tashqari, linolen yog' kislotalarining miqdori 28,14±0,89 % dan iboratdir. Yong'oq va soya moylarida omega-6:omega-3 yog' kislotalari nisbati mos ravishda 9,72 va 7,38 ni tashkil qiladi va bu mavjud tavsiyalardan yuqoridir. Zig'ir urug'i moyi tarkibida linolen yog' kislotalari miqdori 52,58±3,36 % bo'lib, o'rganilgan urug' moylarining linolen yog' kislotalari miqdoridan eng yuqorisidir. Zig'ir moyining omega-6:omega-3 yog' kislotalari nisbati 0,28, shu sababli ushbu urug' moyi o'rganishlar

obyekti sifatida tanlab olingan. Omega-6:omega-3 yogʻ kislotalarining maqbul nisbatlari asosida urugʻ turlari ilmiy tadqiqotning obyekti sifatida tanlangan. Ushbu bobda, naʼmatak urugʻidan moy olishga taʼsir etuvchi texnologik omillar tadqiq etilgan. Naʼmatak urugʻidan ekstraksiyalash orqali moy olishda taʼsir etuvchi omillar, kodlangan va kodlanmagan qiymatlarda ifodalangan. Naʼmatak (*Rosa canina*) yanchilmasini ekstraksiyalash, ekstraksiya benzini yordamida 2<sup>3</sup>-toʻliq faktorial rejasi asosida tasodifiy tanlash yoʻli bilan 8 ta ketma-ket tajribalarda amalga oshirilgan. Naʼmatak urugʻining moyliligi 8,875 % va namligi 2,74 % ni tashkil qilgan. Tajribalarning har birida 40 gramm urugʻ qoʻllangan, tajriba rejasi va natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval**

**Naʼmatak urugʻidan anʼanaviy usulda moy olishning toʻliq faktorli 2<sup>3</sup> rejasi**

№	Kodlangan daraja			Tajribalar matritsasi			Yogʻ miqdori (g)		
	D	T	G	A	B	C	Natija 1	Natija 2	Oʻrtacha
1	-1	-1	-1	0,3<d <sub>1</sub> <1	35-40	3:1	2,34	2,52	2,43
2	1	-1	-1	1<d <sub>2</sub> <2	35-40	3:1	2,24	1,8	2,02
3	-1	1	-1	0,3<d <sub>1</sub> <1	55-60	3:1	2,855	2,745	2,8
4	1	1	-1	1<d <sub>2</sub> <2	55-60	3:1	1,76	2,34	2,05
5	-1	-1	1	0,3<d <sub>1</sub> <1	35-40	5:1	2,68	2,76	2,72
6	1	-1	1	1<d <sub>2</sub> <2	35-40	5:1	1,61	2,43	2,02
7	-1	1	1	0,3<d <sub>1</sub> <1	55-60	5:1	3,24	3,20	3,22
8	1	1	1	1<d <sub>2</sub> <2	55-60	5:1	1,98	2,12	2,05

2-jadvalning 7-sonli tajribasida yanchilma zarrachalarining diametri 0,3<d<sub>1</sub><1 mm, harorati 55-60 °C va 5:1 ml/g gidromodulida 90,7 % moy ekstraksiyalangan, shuningdek, 2-sonli tajribada yanchilma zarrachalarining diametri 1<d<sub>2</sub><2 mm, harorati 35-40 °C va 3:1 ml/g gidromodulida 56,9 % moy olingan. Quyidagi tenglamada ekstraksiyalangan moy va taʼsir etuvchi koʻrsatkichlarning oʻzaro bogʻliqligi keltiriladi.

$$y=2,6562-0,1362A+0,2338B+0,2213C+0,0162A*B+0,0437A*C+0,0237B*C \quad (1)$$

Naʼmatak urugʻi va moylari tarkibidagi elementlar tahlil qilingan. Bunda, eng kam moy miqdorida temir elementi 0,8116 mg/kg, eng koʻp moy miqdorida esa 0,104 mg/kg dan iboratligi aniqlangan. Shuningdek, eng kam moyda 0,98 mg/kg va eng koʻp moyda 0,21 mg/kg mis elementi mavjud. Moy miqdorining ortishi bilan temir va mis elementlarining miqdori kamayishi kuzatilgan, bu bir vaqtning oʻzida haroratga teskari proporsionaldir. Ekstraksiyalash jarayonida bu boʻgʻliqlikni bugʻlanish harorati bilan izohlash mumkin. Urugʻ tarkibida Fe va Cu elementlarining miqdori mos ravishda 1,2486 mg/kg va 3,147 mg/kg dan iboratligi aniqlangan. Boʻlimning keyingi tadqiqotlarida naʼmatak urugʻidan moy olishga organik erituvchi turlari va texnologik koʻrsatkichlarning taʼsiri oʻrganilgan.

Uch bosqichli Boks-Behnken method rejalashtirish usuli asosida 15 marta tajribalar bajarilgan. Kodlanmagan kattaliklar uchun regression tenglamalarning

ko‘rinishi quyidagicha, bunda: C-bosqichlar -1, 0 va 1 uchun mos ravishda (2), (3) va (4) tenglamalaridan iborat.


$$R=5,4+0,08A+0,217B-0,373A^2+0,286B*B+0,02 A*B \quad (2)$$

$$R=5,897+1,01 A+0,08B-0,373A^2+0,286B*B+0,02 A*B \quad (3)$$

$$R=4,73+0,68A-1,715B-0,373A^2+0,286B*B+0,02 A*B \quad (4)$$

Xloroform yordamida ekstraksiyalashda gidromodulning ta'siri haroratga nisbatan kamroq bo'lib, harorat, qovushqoqlik va zichlikka to'g'ridan to'g'ri ta'siri qiladi. Gidromodulning 3:1 qiymatida ekstraksiyalash samaradorligi pastroq (quyi haroratda), shuningdek 50-55 °C haroratda va ushbu gidromodulda ekstraksiyalash miqdori yuqoridir. Xloroform yordamida ekstraksiyalash jarayonini xarakterlovchi regression tenglama (2) da ifodalangan. Keyingi tajribalarda erituvchi sifatida ekstraksiya benzini tanlanib, 5:1 gidromodul va 50-55 °C haroratda maksimal 84,1% moy olingan, jarayonni xarakterlovchi regression tenglama esa (3) orqali ifodalangan (1-rasm a va b).

Na'matak urug'idan izopropanol yordamida moy olish jarayonining regression tenglamasi (4) formulada keltirilgan. Sirt (a) va (b) kontur chizmasida 3:1 gidromodul va 50-55 °C haroratda, eng yuqori 89,5 % moy ekstraksiyalangan. Eng kam moy gidromodulning 3:1 va haroratning 30-35 °C qiymatida olingan. Na'matak urug'i yanchilmasidan izopropanol yordamida ekstrakt olish miqdori yuqori va bu 50-55 °C haroratda hamda gidromodulning bashoratlangan 4,87 qiymatiga to'g'ri keladi, ammo ekstraksiya benzining narxi nisbatan arzon va moy miqdori yuqoridir.




**1-rasm. Na'matak urug'i yanchilmasini ekstraksiyalash jarayonini ifodalovchi sirt (ekstraksion benzin) (a) va kontur chizmalar (b) (R-moy miqdori (g)).**

Ekstraksiya benzini orqali eng yuqori moy miqdori bashoratlangan gidromodulning 5,31 va haroratning 50-55 °C qiymatiga mos keladi. Tajriba va bashoratlash natijalarining maqbul qiymatlari o'zaro muvofiqdir.

Tadqiqot ishining keyingi bosqichida YuKEda na'matak urug'i yanchilmasi diametrlarining moy miqdoriga ta'siri o'rganilgan. Bunda, yanchilma zarrachalari uch xil diametrli elaklarda qismlarga ajratib olingan. Diametri  $d_1 < 0,27$  mm,

0,27<d<sub>2</sub><0,7 mm va 0,7<d<sub>3</sub><1,4 mm o'lchamdagi zarrachalarda tajribalar amalga oshirilgan. Matematik modellash tirish tadqiqotlari texnologik ko'rsatkichlari 30 MPa bosim, 50 °C harorat va CO<sub>2</sub> sarfining 22,34 g/min qiymatlarida amalga oshirilgan.



2-rasm. O'simlik xomashyosidan YuKE orqali moy olish texnologik sxemasi.

YuKE tizimining ko'rinishi 2-rasmida keltirilgan. Karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>) 1 ballondan tizimga beriladi. CO<sub>2</sub> gazi filtr 2 orqali o'tib, 7 °C haroratgacha sovitgich (konditsioner) 3 da sovutiladi, CO<sub>2</sub> ekstraktorga 4 nasos va filtrlar 2 orqali 6 qizdirgichga yetkazib beriladi. Qizdirgichda CO<sub>2</sub> ning harorati zaruriy holatga kelgunicha qizdiriladi. Ekstraktor 7 sig'imida flyud faza va na'matak yanchilmasi zarralari o'zaro ta'sirlashadi. Harorat va bosim termometr va manometrlarda doimiy nazorat qilib turiladi. Ekstraktor 7 da flyud va moy aralashmasi qizdirgich 6 orqali, sig'imi 2 l li 8 separatorlarga beriladi. CO<sub>2</sub> gazi 8 separatordan keyin qayta tizimga yo'naladi. Tadqiqotda na'matak urug'ini YuKEning mavjud matematik modelidan<sup>3</sup> foydalanilgan.

$$uV \frac{\partial a}{\partial h} + \epsilon V \frac{\partial a}{\partial t} + S_p K(j - j^*) = 0 \quad (1 - \epsilon)V \frac{\partial j}{\partial t} = -S_p K(j - j^*)$$

$$a = k_p j \quad t = 0, a = 0, j = j_0 \text{ da} \quad h = 0, a(0, t) = 0 \text{ da}$$

$$d_a \frac{\partial a}{\partial t} - \frac{\partial}{\partial x} \left( \frac{\partial a}{\partial x} \right) - \frac{\partial}{\partial y} \left( c \frac{\partial a}{\partial y} \right) + \beta_x \frac{\partial a}{\partial x} + \beta_y \frac{\partial a}{\partial y} = f$$


$$e_a \frac{\partial^2 a}{\partial t^2} + d_a \frac{\partial a}{\partial t} - \frac{\partial}{\partial x} \left( c \frac{\partial}{\partial x} a + \alpha a - \gamma \right) + \beta * \frac{\partial}{\partial x} a + \alpha a = f$$

$$(1 - \epsilon)V \frac{\partial j}{\partial t} = -S_p K(j - a/k_p)$$


Bu yerda: u-flyud faza tezligi m/s; a-flyud fazadagi moy konsentratsiyasi; V-ekstraktor hajmi m<sup>3</sup>;  $\epsilon$ —bo'shliq; t-vaqt; S<sub>p</sub>k-konstanta; j-qattiq fazadagi boshlang'ich moylilik; j\*-qattiq faza chegara qatlamidagi moy konsentratsiyasi; k<sub>p</sub>-bo'linish koeffitsiyenti;  $\psi$ —forma ko'rsatkichi, 3/5; l-V<sub>p</sub>/S<sub>p</sub>-urug' hajmining urug' yuzasiga nisbati.

3-rasmning a dan to d gacha bo'lgan grafiklarida diffuziyalash koeffitsiyentlarining qiymatlari keltirilgan.


<sup>3</sup> Reverchon E., 1999.




a)  $4,61 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$




b)  $4,63 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$



v)  $4,65 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$




g)  $4,67 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$



d)  $4,69 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$

**3-rasm. Na'matak urug'idan YuKE usulida moy olishda diffuziya koeffitsientining o'zgarish grafigi ( $D_{o,r}=4,61 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$ ;  $D_{o,r}=4,69 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$ ), (nuqtali chiziq-model; to'liq chiziq-tajriba natijalari).**

Yuqoridagi grafiklarda simulyatsiyalash va tajriba natijalari hamda diffuziya koeffitsiyentlarining o'zaro bog'liqlilari namoyon etilgan (3-rasm). Na'matak urug'idan YuKE usulida moy olishda diffuziya koeffitsiyentlarining  $4,6-4,7 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$  qiymatlari oralig'ida har bir  $0,02 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$  o'zgarishlarda nomoslik qiymatlari hosoblangan va shular asosida maqbul diffuziya koeffitsiyenti taklif etilgan. Na'matak urug'ini yuqori kritik ekstraksiyalashda diffuziya koeffitsiyenti va nomoslik qiymatlari orasidagi bog'liqlik 4-rasmda keltirilgan




**4-rasm. Diffuziya koeffitsiyentlari va nomoslik ulushlari orasidagi bog'liqlik ( $1-4,61 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$ ;  $2-4,63 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$ ;  $3-4,65 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$ ;  $4-4,67 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$ ;  $4,69 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$ )**

Nomoslik (noadekvatlik) ulushlarining eng kichik qiymati 3,72 % va bu diffuziya koeffitsiyentining  $D_{o,r}=4,65 \cdot 10^{-13} \text{ m}^2/\text{s}$  qiymatiga to'g'ri kelgan.



Aniqlangan diffuziya koeffitsiyenti asosida simulyatsion tadqiqotlar amalga oshirilgan va tajriba natijalari o‘zaro taqqoslangan, va bu 5-rasmda keltirilgan.



**5-rasm. Na'matak urug'i yanchilmasidan YuKE usulida moy olishning bog'liqlik grafiklari. (a) moy va b) shrotning qoldiq moyi, (to'liq chiziqli-tajriba; uzun nuqtalar-simulyatsiyalash natijalari), ( $d_1 < 0,27$  mm,  $0,27 \text{ mm} < d_2 < 0,7$  mm,  $0,7 \text{ mm} < d_3 < 1,4$  mm)**

Yanchilma diametrlarining o'lchamlari  $d_1$  da nazariy va tajriba natijalari orasidagi moslik 93,8 % ni tashkil qilgan bo'lsa,  $d_2$  va  $d_3$  diametrli yanchilma o'lchamlarida moslik 75-85 % ni tashkil qilgan. Bundan tashqari, yanchilmada moyning vaqt mobaynida o'zgarish grafiklari 5-b rasmda ifodalangan. YuKE orqali olingan na'matak moyining linol (C 18:2), linolen (C18:3) va olein (C18:1) yo'g kislotalari mos ravishda 53,08%, 22,68% va 15,18 % dan iborat bo'lib, shu bilan bir qatorda to'yingan yog' kislotalari miqdori 8,31 % ni, to'yinmagan yog' kislotalari miqdori esa 91,68 % ni tashkil qilgan.

Amaliy va nazariy tadqiqotlar asosida aniqlangan yanchilma zarrachalari diametrining  $0,15 \text{ mm} < d_z < 0,7 \text{ mm}$  o'lchamlari oralig'i maqbul qiymatlar sifatida qabul qilingan va shu o'lchamlarda tajribalar davom ettirilgan. YuKE texnologik ko'rsatkichlarida ekstraktor harorati  $T = 35-50$  °C; separator harorati  $T_c = 35-50$  °C; ekstraktor bosimi  $P = 20-35$  MPa va  $G = 5-20$  L/soat  $\text{CO}_2$  sarflarida tajribalar ortogonal reja asosida amalga oshirilgan.

Na'matak urug'idan YuKE usuli orqali moy olishda harorat 35°C, bosim 20 MPa, separator harorati 35 °C va  $\text{CO}_2$  sarfi 5 l/soatni tashkil qilganda eng yuqori moy 79,1 % dan iboratligi aniqlangan.

Na'matak urug'i moyi yog' kislotalarining tarkibi 3-jadvalda keltirilgan.

**3-jadval**

**Na'matak urug'i moyining muhim yog' kislotalari tarkibi**

№	omega-9, %	omega-6, %	omega- 3,%	omega-6/omega-3	to'yingan/to'yinmagan yog' kislotalari
1	15,89	51	23,64	2,15	0,096

Na'matak urug'i moyining C 18:1 monoto'yinmagan yog' kislotalari 15,89 %, C 18:2, C 18:3 yog' kislotalarining miqdori mos ravishda 51 % va 23,64 % dan iboratligi aniqlangan. Shuningdek, C18:2/C18:3 yog' kislotalarining nisbati 2,15, to'yingan yog' kislotalarining umumiy miqdori 8,79 %, to'yinmagan yog'




kislotalari miqdori 91,21 % ni tashkil qilgan va ularning nisbati 0,096 ga teng (3-jadval). Moy muhim yog' kislotalarining o'zaro nisbati tavsiyalar doirasidadir.

Umumiy holda, an'anaviy va yuqori kritik ekstraktsiyalash texnologiyasi orqali olingan moylarning sifat ko'rsatkichlari standart talablariga javob beradi. Ushbu moylarning olinish usulidan kelib chiqqan holda kosmetika va farmatsevtika sanoatlariga qo'llash imkoniyati mavjud.


Dissertatsiyaning «**Na'matak urug'idan an'anaviy va yuqori kritik ekstraktsiyalash usullari orqali moy olish texnologiyasini ishlab chiqish**» deb nomlangan to'rtinchi bobida dastlab an'anaviy ekstraktsiyalash usulida moy olishning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari baholangan.

